DARE TO DREAM: Missions to Space

24-yanvar kuni AQShning kosmik missiyalar bo‘yicha muhandisi, NASA Jet Propulsion Laboratory tizim muhandisi va Mars 2020 Perseverance Rover missiyasi Mission Lead’i Nagin Cox bilan uchrashuv bo‘lib o‘tadi.

Bu ma’ruza kosmos haqidagi orzu qanday qilib kasbga aylanishi, murakkab sayyoralararo missiyalar esa butun dunyo bo‘ylab jamoalar tomonidan qanday yaratilishi haqida. Nagin Cox Galileo, Mars Curiosity Rover, Perseverance, Europa Clipper va MOXIE kabi afsonaviy kosmik loyihalarning ichki jarayonlari bilan bo‘lishadi.

Sessiya mavzulari
— insoniyat Yer chegaralaridan tashqarida kosmosni qanday tadqiq qilmoqda
— Mars va undan uzoqroqqa yo‘naltirilgan missiyalar qanday loyihalanadi, uchiriladi va boshqariladi
— eng yirik kosmik kashfiyotlar ortidagi insonlar haqidagi real hikoyalar

Spiker
Nagin Cox — NASA JPL muhandisi, NASA Exceptional Service Medal va NASA Exceptional Achievement Medal sohibasi, AQSh Harbiy-havo kuchlari va NORAD’ning sobiq ofitseri, TED-spiker, STEM elchisi va so‘nggi o‘n yilliklarning asosiy sayyoralararo missiyalari ishtirokchisi.

Tadbir tafsilotlari
Sana: 24-yanvar 2025
Vaqt: 11:00–12:00
Manzil: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Ya.G'ulomov ko'chasi, 70
Til: ingliz tili

Havola orqali (https://itpu.uz/missions_to_space) ro‘yxatdan o‘tish

Kosmos, ilm-fan va o‘zingizning imkoniyatlaringizga bo‘lgan qarashingizni o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan bir soat.